



ASSESSMENT USULINING AHAMIYATI

Kodirova Shoirabek Abdurakhmanovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda innovatsion texnologiyalardan biri bo'lgan assessment usuli mazmuni keltirilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion pedagogik texnologiyalar, assessment, o'z-o'zini baxolash imkoniyati.

Usulning maqsadi: talabalarning mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganligi bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, mustaqil ravishda o'zlarining bilim darajalarini baholash, shuningdek, o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatish

Dolzarbligi: Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishini talab etadi..

Vazifa: Zamonaviy pedagogik texnologiya usullarni qo'llash orqali o'rganilayotgan mavzuni qisqa vaqt ichida talabalar tomonidan samarali o'zlashtirilishiga erishish.

Assessment usuli (ingl – assessment – baho) o'z-o'zini takdimot qilish, ma'lum bir sinovdan o'tish deb belgilanadi.

Usulning maqsadi: talabalarning mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganligi va bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, mustaqil



ravishda o'zlarining bilim darajalarini baholash, shuningdek, o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatish.

Vazifasi: usulni qo'llash orqali o'rganilayotgan mavzuni qisqa vaqt ichida talabalar tomonidan samarali o'zlashtirilishiga erishishni nazorat qilish.

Usulning qo'llanishi. O'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biron-bir bo'limi tugallanganida) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash takrorlash, mustaxkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tqazish uchun, shuningdek, ko'nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo'ljallangan. Ushbu usulni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka tartibda tashkil etish mumkin.

Mashg'ulotda foydalaniladigan tarqatma materiallar:vaziyatli masalalar, amaliy ko'nikmalar, test topshiriqlari, mavzu bo'yicha savollar to'plami.

Natijalar:Talablar berilgan mavzular bo'yicha berilgan topshiriqlarni mustaqil yechadilar va o'zlarini baholaydilar, ularning faolligi oshadi

talabaning o'z ustida mustaqil ishlashi oshadi, amaliy ko'nikmani o'zlashtirish imkoniyati kengayadi, ularning o'z bilim ko'nikma, malakalarini mohirlik bilan sinash imkoniyati yaratiladi.

Xulosalar:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi.
2. O'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дресслер Г. Управление персоналом: учебное пособие для студентов вузов. Москва ЮНИТИ 2004г
2. Елена Барышникова. Оценка персонала методом ассесмент- центра .Манн , Иванов и Ферер. 2013 г.